

**QORAQALPOG‘ISTON
RESPUBLIKASI****KEGEYLI TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I****QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI****KEGEYLI RAYONI HAKIMININ
S H E S H I M I**

Kegeyli tumani 230500, G‘arezsizlik kóchasi, 4-uy

Kegeyli rayoni 230500, G‘arezsizlik kóshesi, 4-jay

2024 - yil 25 - yanvar

21-13-184-Q/24

Kegeyli tumani hokimligi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining korruptsiyaga qarshi**ichki nazorat bo‘limi faoliyatiga doir hujjatlar to‘plamini tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasining “Korruptsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni talablari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013- sonli, 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va Vazirlar Mahkamasining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-sonli farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14- oktyabrdagi “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 595- sonli qarori ijrosini ta‘minlash va takomillashtirish maqsadida hamda shu haqidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2024 yil 5-yanvar 9-13-0-Q/24 son qarori ijrosini taminlash maqsadida, «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:**1. O‘zbekiston Respublikasining “Korruptsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi**

Qonuni talablari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013- sonli, 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va Vazirlar Mahkamasining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-sonli farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14- oktyabrdagi “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 595- sonli qarori ijrosini ta‘minlash va takomillashtirish maqsadida hamda shu haqidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2024 yil 5-yanvar 9-13-0-Q/24 son qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Mazkur qarori bilan quyidagilar:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosati 1-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi faoliyatida korruptsiyaviy xavf-

xatarlarni baholash Uslubiyoti 2-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom 3-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti 4-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi xodimlarining etika va

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma 5-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma 6-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish boyicha yo‘riqnoma 7-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashida Korruptsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti 8- ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashida korruptsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom 9-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi xodimlarining korruptsiyaviy xatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglament 10-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Nukus shahar va tumanlar hokimliklari hamda Vazirlar Kengashiga bo‘ysunuvchi muassasalarda davlat xaridlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom 11-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limining funktsional vazifalari to‘g‘risidagi Nizom 12-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 4- dekabrda “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi faoliyatiga doir hujjatlar to‘plamini tasdiqlash haqida”gi 172-13-0-Q/21-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3.Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Tashkiliy kadrlar guruhi, Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi xodimlarining odob-ahloq komissiyasi o‘z faoliyatida mazkur qaror ilovalarida qayd etilgan Reglament, Uslubiyot, yo‘riqnoma va Nizomlar talablarining amaliyotda foydalanilishini ta’minlasin.

4.Kegeyli tumani hokimining urinbosari A.Toremuratov bilan birgalikta ushbu Qarorda kursatilgan vazifalarning bajarilishini ta’minlash topshirilsin.

5.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman

Tuman hokimi



A.Kamalov